



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 130-135 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARIDA MODDIY XARAJATLARNI HISOBGA OLISHNING AMALDAGI TIZIMINI BAHOLASH



Sa'dullayeva Sayyora Nasillo qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada, nefni qayta ishlash korxonalarida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yanada takomillashtirilgan uskunalardan foydalanishni joriy qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali moddiy xarajatlarni boshqarish muammosi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: moddiy resurslar, sanoat, burg'ulash, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy natija.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема повышения эффективности использования материальных ресурсов на нефтеперерабатывающих предприятиях, внедрения более совершенного оборудования и управления материальными затратами посредством внедрения инновационных технологий.

Ключевые слова: материальные ресурсы, промышленность, бурение, управление затратами, финансовые результаты.

Abstract: This article considers the problem of increasing the efficiency of using material resources at oil refining enterprises, introducing the use of more advanced equipment, and managing material costs through the introduction of innovative technologies.

Keywords: material resources, industry, drilling, cost management, financial results.

Kirish

Neftni qayta ishlash sanoati Respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarlaridandir. Bunda uning ko'lami, sohada band bo'lgan mehnatga layoqatli aholi soni, uning YaIMdagi ulushi bilan ham bevosita bog'liq Neft-gaz korxonalarida ishlab chiqarishda xarajatlarni boshqarish hisobini takomillashgan usullar bilan boyitish o'tgan asrning oxirlarida boshlangan. Davlat narxlarni belgilash siyosati doirasida neft-gaz korxonalarida ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarishning real xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga qiziqishi dolzarb edi shu bilan birgalikda, narx belgilash muammolari davlat tuzilmalari tomonidan amalga oshirilgan narxlar ishlab chiqarish va sotishning umumiy xarajatlaridan kelib chiqib belgilangan. Shu sababli zavod rahbarlarida xarajatlarni boshqarish orqali tannarxni pasyitirishga rag'bat bo'lmagan. Bugungi kunga kelib neft-gaz sanoati korxonalarida xarajatlarni boshqarishga bo'lgan talab yuqori, chunki bu nafaqat ichki balki tashqi faoliyat sharoitlari bilan bog'liqdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Neft-gaz korxonalarining yuqoridagi tarmoqqa doir xususiyatlarini inobatga olgan holda tarmoqqa doir iqtisodiy qarashlarni vujudga keltirib bunday korxonalarda iqtisodiy zarur shart-sharoitlarni yaratilishi moddiy xarajatlarni hisobini yuritishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodchi olimlar J. Francis va K. Shipperlarga ko'ra korxonalar faoliyatini baholashda daromad ko'rsatkichlarida foydalanish moliyaviy tahlilning eng ko'p qo'llaniladigan usuli hisoblanadi¹. Boshqa iqtisodchilar olim N. Jegadesh va J. Livnatlar ham korxona faoliyatida daromadni tahlil qilish roli haqida fikr bildirib o'tishgan. Ularga ko'ra korxonaning moliyaviy faoliyati to'g'risida to'liq axborot beruvchi ko'rsatkich sanaladi². Biroq bizning fikrimizcha, korxona faoliyatini baholashda daromad bilan birgalikda uning xarajatlari dinamikasini o'rganish korxonaning moliyaviy faoliyatiga umumiy baho berishga xizmat qilishimiz mumkin. Bunga sabab daromad va xarajat o'rtasidagi nisbat har qanday tashkilotning moliyaviy natijasi ya'ni foyda yoki zararini shakllantiradi. Shu bois, daromad va xarajatlarni to'g'ri hisobga olish, tahlil qilish hamda rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar korxona barqarorligi, investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.³

Tadqiqot metodologiyasi

Neft-gaz sanoati zamonaviy geologiya, burg'ulash, avtomatika va kimyo texnologiyalari kabi murakkab jarayonlardan iboratligi sababli texnik xatolik ham katta iqtisodiy va ekologik zararga olib kelishi mumkin. Shu sababli sohani innovatsion texnologiyalar va yuqori malakaga ega bo'lgan muhandis-texnik kadrlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda "O'zbekneftgaz" AJ 50 dan ortiq korxonalarni, shu jumladan 13 ta qo'shma korxona, uglevododlarni qazib olish bo'yicha 10 ta yirik korxonalarni, shuningdek, bir qator nazorat ostida bo'lgan korxonalarni birlashtirgan zamonaviy ko'p pog'onali vertikal integrallashgan kompaniya hisoblanadi.⁴

Tahlil va natijalar

Moddiy xarajatlarning shaffofligini oshirish uchun an'anaviy kalkulyatsiyadan olingan ma'lumotlarni yanada aniqlashtirish uchun mahsulot tannarxini alohida operatsiyalar majmui sifatida ko'rib chiqish zarur.

Neft-gaz sanoati o'ziga xos boshqaruv ta texnikaviy xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli har bir korxona o'z faoliyatiga munosib moddiy xarajatlarni boshqarishni muvofiqlashtirishi kerak. Moddiy xarajatlarni boshqarish bo'yicha umumiy tuzilmani kengroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalo, korxonaning foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tahlil qilish lozim. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan korxona yillik hisoboti ma'lumotlariga asosan korxonaning quyidagi ko'rsatkichlarini tahlil qilishimiz mumkin:

¹ Francis, J., and K. Schipper. 1999. Have financial statements lost their relevance? *Journal of Accounting Research* 37 2: 319–352.

² Jegadeesh, N., and J. Livnat. 2006. Revenue surprises and stock returns. *Journal of Accounting and Economics* 41 1–2: 147–171.

³ Hui Hu, Shuaizhou Xiong, Zeyu Wang, Zishuo Wang, Xiang Zhou, Green financial regulation and shale gas resources management, *Resources Policy*. 2023.

⁴ "O'zbekneftgaz" AJ rasmiy sayti www.ung.uz sayti ma'lumotlari asosida

1-jadval.


“O‘zbekneftgaz AJ” da moddiy xarajat markazlari⁵

Bo‘lim, xizmat	Boshqaruv obyekti	
	Potensial moddiy xarajatlar	Real moddiy xarajatlar
Asosiy moddiy xarajatlar markazlari		
Rejalashtirish bo‘limi	moddiy resurslar byudjetini tayyorlash, uning amalga oshirilishini tahlil qilish	rejalashtirilgan xarajatlar smetalarini, byudjetlarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishini tahlil qilish
Buxgalteriya	Ishlab chiqarish zaxiralarining balans qiymati va ularni joylashtirish bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar	Buyum va iqtisodiy element bo'yicha xarajatlar bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar
Tahlil va statistika bo‘limi	Tovar-moddiy zaxiralar dinamikasi va tuzilishini hamda ularning aylanmasini tahlil qilish	Xarajatlarning tuzilishi va dinamikasini tahlil qilish, material xarajatlarning mahsulotning bir rubliga to'g'ri keladigan tannarxga ta'sirini aniqlash
Qo‘shimcha moddiy xarajatlar markazlari		
Eksport-import operatsiyalari bo‘limi	Import qilinadigan materiallar uchun narxlar darajasi va tarif siyosati haqida ma'lumot	
Ishlab chiqarish va jo'natish bo'limi, bosh muhandis bo'limi	Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot turi (reja), material resurslariga bo'lgan ehtiyoj	Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy hajmi, mahsulot turlarini sozlash (ishlab chiqarish sexlariga xabar berish)
Bosh energetik bo'limi	Energiya resurslariga bo'lgan ehtiyoj	Iste'mol qilingan haqiqiy resurslar
Logistika bo'limi	Material resurslarini yetkazib berish buyurtmalarini joylashtirish, narxlarni tartibga solish	

⁵ O‘zbekneftgaz” AJ rasmiy sayti www.ung.uz sayti ma'lumotlari asosida

Moddiy xarajatlarni boshqarish hisobining keyingi elementi - bu resurslar qiymatini ma'lum mahsulotlarga o'tkazish to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan bo'linmalar bilan ifodalangan kichik tizim. Ushbu korxonada material xarajatlar markazlarini boshqarish mavjud mas'uliyat markazlari tomonidan tartibga solingan va belgilangan axborot oqimlari bilan to'ldirilgan. Xarajatlarni hisobga olish, tahlil qilish hamda rejalkashtirish va nazorat qilish maqsadida xarajat markazlari orasida axborot almashinuvi ichki tartib-qoidalarga muvofiq tartiblangan.

Boshqaruv tizimiga asosan ishlab chiqarishga oid bo'lgan va ishlab chiqarishga oid bo'lmagan xarajatlar haqida ma'lumotlar yuritiladi. Bu bo'limlar faoliyatiga muvofiq ta'minot, ishlab chiqarish hamda sotish kabi bo'limlarga bo'linib, u yerda mos ravishda sotib olinga resurslarning narxi va diapazoni, ishlab chiqarishga doir xarajatlar, energiya iste'moli, xodimlarning ish soatlari, uskunalarining ishlashi, neft xarajatlari va tijorat xarajatlar turli boshqaruv markazlari tomonidan yuritiladi, buni xarajatlarning iqtisodiy mazmunidagi farqlar bilan izohlaymiz.




1-rasm. "O'zbekneftgaz AJ" da xarajatlarni hisobga oluvchi quyi tizimlar⁶

Korxona faoliyatini moliyaviy tahlil qilish korxonaning mavjud potentsiali hamda ehtiyojlarini to'liq ochishda muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, korxonalarining samarali faoliyat olib borishi ta'minlanadi. Bizga ma'lumki, korxonaning iqtisodiy samadorlik ko'rsatkichlari avvalo, uning daromad va xarajat dinamikasini moliyaviy tahlil qilish orqali baholanadi. Bunda, xarajatlarning ortishi samaradorlikni oshirayotgani yoki aksincha xizmat qilyapti kabi savollar javob olish mumkin. Birinchi holatda, korxona faoliyatida xarajatlar maqsadli amalga oshirilayotgani ifodalansa, ikkinchi holat esa korxona faoliyatida jiddiy muammolar mavjudligini anglash mumkin.

Statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki O'zbekneftgaz AJ mamlakatimizning eng yirik daromad hamda xarajat ko'rsatkichlariga ega korxonlardan hisoblanadi. O'zbekneftgaz AJ moliyaviy ko'rsatkichlari choraklik hamda yillik kesimlarda shakllantirib boriladi. Quyidagi rasmda O'zbekneftgaz AJ so'ngi 5 yillik darvdagi daromad va xarajatlar dinamikasi keltirib o'tilgan.

⁶ O'zbekneftgaz" AJ rasmiy sayti www.ung.uz sayti ma'lumotlari asosida



2-rasm. O'zbekneftgaz AJning jami daromad va xarajatlari dinamikasi (mlrd.so'mda)⁷

Olib borgan ilmiy izlanishlarimizga ko'ra, O'zbekneftgaz AJning daromadi so'nggi yillarda sezilarli o'sishni ifodalab kelmoqda. 2020-yilda O'zbekneftgaz AJning daromadi 11878 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 16381 mlrd.so'mga yetganini ko'rishimiz mumkin. So'nggi 5 yilda O'zbekneftgaz AJ faoliyatidagi eng yaxshi o'sish 2023-yil bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotlarimizga ko'ra, O'zbekneftgaz AJ 2023-yilda 14991 mlrd.so'm daromadga erishgan bo'lib, 2022-yildagi daromad (13441 mlrd.so'm)ga nisbatan 1550 mlrd.so'mga ko'p. Keyingi eng yaxshi o'sish 2024-yilda kuzatilgan bo'lib, oldingi davrga nisbatan 1354 mlrd.so'm oshib 16381 mlrd.so'mga yetgani aniqlandi. O'zbekneftgaz AJ 2021-yilda 12296 mlrd.so'm daromad qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 13441 mlrd.so'mga yetgan.

O'z o'zidan ko'rinadiki, korxona moliyaviy natijalarida daromad va foyda darajasiga yaqqol ta'sir etuvchi unsur bu xarajatlardir. "O'zbekneftgaz AJ" xarajatlari tarkibi ishlab chiqarish xarajatlari, soliqlar va majburiy to'lovlar, amortizatsiya, eskirganlik va resurslar yo'qotilishi, boshqaruv va umumiy xarajatlar, moliyaviy xarajatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xarajatlarni tahlil qilish orqali korxona samaradorlikni oshirish yo'llari, investitsiya va kredit imkoniyatlarini o'lchash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli strategic qarorlar qabul qilishi uchun asos bo'la oladi. Xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish korxonaning operatsion va moliyaviy strategiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xarajatlar tarkibining o'sishi yoki kamayishi ko'pincha daromadlarga bo'g'liqdir. Xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbiylik ishlab chiqarish hajmi va startegik qarorlar qabul qilish uchun muhim element bo'lib hisoblanadi. O'zbekneftgaz AJ daromadlarining asosiy qismi tabiiy gazni realizatsiya qilish, neft va qayta ishlangan neft mahsulotlari – dizel, benzin, suyultirilgan gazni sotishdan, tabiiy gaz va neft mahsulotlari eksportidan, qidiruv va burg'ulash, transport va saqlash xizmatlaridan va moliyaviy daromadlar

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha statistik to'plamlar. — Toshkent, so'nggi yillar.

evaziga shakllanadi. Daromad manbalarining diversifikatsiyalanganligi kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridandir.

Xulosa

Har qanday korxonada qayta ishlash jarayonida ko'plab mahsulotlarning ko'rinishlari ishlab chiqariladi. Tayyor mahsulotning ma'lum qismi sotuvga yo'naltiriladi va ma'lum qismi qayta ishlashga yo'naltiriladi. Qayta ishlash jarayonidan so'ng, tabiiyki, mahsulotning nomi ham o'zgaradi.. Iste'mol qilingan moddiy resurlar kesimida mahsulot tannarxini to'g'ridan to'g'ri kuzatish imkonsiz, chunki qayta ishlash jarayoni alohida qayd etiladi. Agar har bir bo'limda tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor mahsulot omborlari borligini inobatga olsak, so'nggida mahsulot tannarxini belgilashga ko'p vaqt sarflanadi. Neft-gaz korxonalari tayyor mahsulot birligiga sarflanadigan moddiy resurslarning batafsil ketma ketligini ko'rish imkoniyatini bermaydi. Yarim tayyor mahsulotning joriy qiymati oldingi tayyor mahsulotning moddiy resurslari qiymatidir. Shunday qilib, yarim tayyor mahsulotlar qayta ishlash mahsulotining umumiy qiymatidir. Moddiy xarajatlarni baholash jarayonining aniqligini oshirish maqsadida, ushbu muammo dolzarbdir. Oldingi va keyingi tayyor mahsulotlarning tannarxini bog'lamasdan turib neft mahsulotlari tannarining tarkibi va tuzilish dimamikasi sxemasini yarata olmaymiz. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, O'zbekneftgaz AJ korxonasida moddiy xarajatlarni takomillashtirish korxonaning daromad solig'idan oldingi foydasining oshishiga, daromad solig'ining iqtisodiy jihatdan optimallashtiruviga hamda sof foydaning barqaror o'sishiga olib keluvchi omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. - Xalq nutqi, 2020-yil 26-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni.
3. Francis, J., and K. Schipper. 1999. Have financial statements lost their relevance? Journal of Accounting Research 37 2: 319–352
4. Jegadeesh, N., and J. Livnat. 2006. Revenue surprises and stock returns. Journal of Accounting and Economics 41 1–2: 147–171.
5. Weber A. Theory of the Location of Industries. — Chicago: University of Chicago Press, 1929.
6. Hui Hu, Shuaizhou Xiong, Zeyu Wang, Zishuo Wang, Xiang Zhou, Green financial regulation and shale gas resources management, Resources Policy. 2023.
7. Остапенко Л. М. Эволюция понятия «финансовые ресурсы» и современные подходы к определению//Вестник современной науки. - 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha statistik to'plamlar. — Toshkent, so'nggi yillar.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Mintaqaviy rivojlanish bo'yicha tahliliy hisobotlar. — Toshkent, so'nggi yillar.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

